

O'QUV JARRAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING G'OYA VA FIKRLARINING TUTGAN O'RNINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8343045>

Meliboyev Anvar Rashidovich

*Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedراسي
mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi islohotlardan, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiya tarixi boy ma'naviy merosini o'rganish har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviyat, o'quv-biluv jarayoni, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik, adolatlilik, sadoqatlilik, jonajon o'lkaga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik, poklik, qanoatlilik, to'g'rilik.

Аннотация

В данной статье речь идет о воспитании и развитии всесторонне развитой личности, познании богатого духовного наследия современной культуры, истории образования, созданной нашими предками на основе реформ в области образования, богатого интеллектуального наследия нация и общечеловеческие ценности.

Ключевые слова

образование, культура, духовность, учебный процесс, трудолюбие, терпение, вежливость, храбрость, вера, справедливость, верность, любовь к своей стране, творчество, изобретательность, чистота, довольство, правильность.

Annotation

This article is about the education and development of a comprehensively developed personality, knowledge of the rich spiritual heritage of modern culture, the history of education created by our ancestors on the basis of reforms in the field of education, the rich intellectual heritage of the nation and universal human values.

Keywords

education, culture, spirituality, educational process, hard work, patience, politeness, courage, faith, justice, fidelity, love of one's country, creativity, ingenuity, purity, contentment, correctness.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini isloh qilishga oid davlat siyosati ta'lim tizimi rivojlanishi strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ta'lim sohasidagi mazkur hujjatlar Respublikada ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgani holda, xalq ta'limi sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo'l ochildi. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad - xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayabti. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[1]." - degan fikrlarini eslashimiz kerak.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning axloqiy va ma'naviy takomili ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga bog'liq. Bu vazifani hal etish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida xalqimiz tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, baholash va ulardan yosh avlodni ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiya tarixi boy ma'naviy merosga ega bo'lib, uni o'rganish har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari yaratgan o'lmas asarlar dunyo fani va sivilizatsiyasiga qo'shilgan mislsiz hissadir. Ular orasida Abu Rayhon al-Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) larning asarlari alohida o'rin tutadi. Ularning didaktik asarlarida ifodalangan sahovatlilik, insonparvarlik, halollik, do'stlik, Vatanga muhabbat, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik, adolatlilik, sadoqatlilik, jonajon o'lkaga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik, poklik, qanoatlilik, to'g'rilik hamda boshqa milliy va umuminsoniy

sifatlarini maktabgacha ta'lim muassasalari mashg'ulotlaridanoq farzandlarimiz ongiga singdirish ma'naviy ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Hamma zamonlarda ham o'quv-biluv jarayonining pirovard maqsadi o'quvchi-tarbiyalanuvchini o'qish, o'rganish, o'zlashtirish, bilish va olgan bilimlarini kundalik hayotida foydalana bilishlari bilan baholangan va natijalangan. Ma'lumki, mamlakatimizda uch ming yillar avval ham bilim olish va mutolaa qilish oilada, jamoa muhitida ustoz-shogirdlik asosida olib borilgan. Buyuk allomalarimiz Mirzo Ulug'bek, Ibn-Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy davrlarida ilohiy-dunyoviy bilimlarni o'rganish maxsus madrasalar va Akademiyalarda amalga oshirilgan.

Bilimlar, asosan, yakka tartibda va kichik jamoalarda, ustoz-shogird maktablarida mutolaa, mushoira, muzokara tariqasida amalga oshirilgan. O'sha davrda ham tarbiyalanuvchilarni baholovchi mezonlar bo'lgan. Jumladan, tarbiyalanuvchi berilgan vazifalarni bajarib, o'z fikrini ongli ravishda bayon qila olsa, ustoz tarbiyalanuvchilar oldida unga "tashakkur" yoki "tasanno" deyish orqali baholagan. Agar tarbiyalanuvchi berilgan vazifalarni yuqori darajada bajarib, to'la o'zlashtirib, tarbiyalanuvchilar orasida yorqin, ravon bayon qilib ayta olsa, ustoz uni "barakallo" deb rag'batlantirgan. Agar tarbiyalanuvchi berilgan vazifa va topshiriqlarni a'lo darajada bajarib, amaliyotda uni bemalol qo'llay olsa, unga yuqori baho berib, "ofarin" deb rag'batlantirgan.

Xazrati Mir Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan yaratilgan va hozirgi kunda ham ta'lim-tarbiya sohasida dasturi amal bo'lib xizmat qilayotgan o'nlab pandnoma tipidagi asarlar komil inson tarbiyasida muhim rol o'ynab kelmoqda. Demak, Sharq uyg'onish davri pedagogik ta'limotida, ta'limiy-axloqiy asarlarda komil inson tarbiyasi asosiy va muhim masalalardan sanalgan.

Sharqning buyuk allomalari - Yusuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. Shu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid "Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Nosiriy", "Qobusnoma" kabi asarlar yaratilgan.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan turkiy tilda "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), "Zubdat as-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i") nomli asarlar yaratildi. "Odob as-solihin"

asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g'oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi hulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma'lumotlar berishga xizmat qiladi. "Odob as-solihin" asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi o'rni va roli borasida batafsil so'z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Odob as-solihin" asari muallifning o'zi ta'kidlab o'tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo'lib, har bir bob o'zida 4 faslni aks ettiradi.

Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko'zda tutilgan maqsad borasida so'z yuritilar ekan, insonning ijobiy hulq-atvorga ega bo'lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya - insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy hulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi

Shunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to'laqonli ravishda anglab, ularga qat'iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo'l va usullar orqali boxabar bo'lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular etuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo'tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati mavjudligini alohida ta'kidlab o'tadi. Asarda komil inson bo'lib etishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so'rash, muloqot, uxlash, yo'l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo'lga qo'yish odobi va ularga amal qilish shartlari borasida so'z yuritiladi. Suhbat ahlining o'zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o'rin olgan.

Ahli suhbatga noloyiq hatti-harakatlardan qochish maqsadida suhbat ishtirokchilarining xotirjamligini buzgan kimsaga o'z xatti-harakatlarining no'rinligini imo-ishora bilan tushuntirish, u o'zini o'nqlab ololmasa zarur holatda uni davradan chetlatish, mazkur chora-tadbirni ortiqcha shov-shuvsiz amalga oshirish, suhbat chog'ida pinakka ketmaslik, o'zini o'zgalardan yuqori tutmaslik, suhbatdoshning so'zini bo'lmaslik, sukut saqlashda ham ma'lum me'yorlarga amal qilish, ortiqcha takallufga yo'l qo'ymaslik, hamsuhbati bilan bahs qilmaslik, ammo tortishish mumkinligi, g'azab kelganda uni to'xtata olish, ortiqcha qiziqchilik, hazil-mutoyiba, xushomadgo'ylik qilmaslik, bu borada me'yordan chetga chiqmaslik, o'zgalarning shaxsiyatini kamsituvchi laqablarni tilga olmaslik, davra ishtirokchilari orasida bir-biri bilan pinhona va boshqalar tushunmaydigan tilda pichirmaslik, pinhona so'zlashayotgan hamrohlarning so'zlariga quloq solmaslik kabi qoidalarning mohiyati asar mazmuni orqali to'laqonli yoritilib beriladiki, ulardan xabardor bo'lish har bir kishi uchun o'ta muhimdir. Asarda ilgari surilgan er va xotin o'rtasida tashkil etiluvchi munosabatlar odobiga oid qarashlar ham alohida diqqatga sazovordir.

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim foaliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi".

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar, metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay olishi lozim. O'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtiribva rivojlantirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash malakasini egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llash malakalarini bilishi kerak.

Tarbiyachi - odobli, adolatli hamda "bola qalbining injeneri"dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini

yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Ushbu qadriyatlar ta'lim-tarbiya asosida yosh avlod ongiga singdiriladi. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratida umumbashariy qadriyatlar ularning ma'naviy dunyosini naqadar keng ekanligini namoyon etadi. Buyuk allomalarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turgan. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Inson axloqi aqlga, xulqi va xatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga hamda ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Allomalarning fikrlariga ko'ra, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishish, bilimli va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'lab, jamivatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqirdilar, muallimlarning shijoatli mehnatini qadrlaydilar.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir.

Falsafiy talqinda qadriyatlar - inson va insoniyat uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik kabi barkamol inson uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi holatlar yig'indisidir.

Demak, qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan izohlaganimizda, insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy - ruhiy xatti- harakatlar, narsa va hodisalar majmui[2].

Barcha qadriyatlarning mohiyatini eng oliy tuyg'u - insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik - insonning sharafi, vijdoni va iymonining mahsuli. Insonparvarlik xayrixohlik, g'amxo'rlik, moddiy-ma'naviy madadga intilish tuyg'usi, iymon va vijdon doirasida mehr-muruvat ko'rsatish[3].

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual

va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi". Mutafakkir insonning bilimlarni o'zlashtirishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi"[4].

Abu Ali ibn Sino esa bilimni chuqur o'zlashtirish donishmandlik ekanligini aytadi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat - donishmanlik deyildi"[5].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir, Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish etakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan "Xilvat dar anjuman", "Safar dar vatan" g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-

munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoShli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. 261-bet.
2. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 66-bet
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 58-bet
4. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: Davlat nashriyoti, 1965. – 125-bet
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 137-bet